

YETUKLIK YOSHNING IKKINCHI DAVRI VA KEKSA YOSHDAGI ODAMLARDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI JISMONIY TARBIYA

Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich

Andijon davlat universiteti Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya: Fiziologik nuqtai nazardan keksa odamlarda funksional xolatni o'zgarishi va mexnat qobiliyatchanlikni susayishi ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Eng avvalo ularda qonning xarakatlanish tezligi sekinlashadi, sirkulyatsiyalanayotgan qonning sig'imi va uning oksigenatsiyasi kamayadi, to'qima va a'zolarida gipoksiya xolati rivojlanadi.

Kalit so'zlar: Yetuklik, keksalik, yemiririlish nazariyasi, energiya, zaxarlash qarish

Abstract: From a physiological point of view, changes in the functional status of elderly people and the reduction of drinking capacity depend on many factors. First of all, the speed of blood movement slows down in them, the capacity of circulating blood and its oxygenation decrease, hypoxia develops in tissues and organs.

Key words: Maturity, old age, decay theory, energy, toxic aging

Резюме: С физиологической точки зрения изменение функционального состояния пожилых людей и снижение способности питья зависят от многих факторов. Прежде всего у них замедляется скорость движения крови, снижается емкость циркулирующей крови и ее оксигенация, развивается гипоксия в тканях и органах.

Ключевые слова: Зрелость, старость, теория распада, энергия, токсичное старение.

Yetuklik va keksalik davrlari odam individual rivojlanishida yuzaga keladigan qonuniy davrlar xisoblanadi. Voyaga yetish va qarish jarayonlari to'xtovsiz bo'lib, bir maromda va bir vaqtda ketmaydi. Yetuklikning ikkinchi davri ayollarda 36 – 55 yosh va erkaklarda 36 – 60 yosh qabul qilingan; keksalik davri esa ayollarda 56 – 74 yosh, erkaklarda 61 – 74 yosh xisoblanadi.

Organizmni qarishini tushuntiruvchi bir qator nazariyalar mavjud. Ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz. Ko'pchilik olimlarning fikricha xujayra va molekula darajasidagi qarish bir butun organizmning qarishiga nisbatan sekinroq ketadi. Qarishni tushuntiruvchi nazariyalar biri yemiririlish nazariyasi xisoblanadi, bu nazariyaga ko'ra odam xayotning ikkinchi yarmida xuddi mashinaning detallari kabi organizmning xujayralari, to'qimalari, tizimlari yemiriladi va boshqaruv jarayonlari bo'shashib ketadi. Bu nazariyaning ishonchsizligi shundaki, xayot faoliyati davomida odam organizmi nafaqat yemiriladi, balki qayta tiklanadi va o'zini boshqaradi.

Shunday nazariyalardan yana biri xayotiy energiya zaxiralarini sarflab tashlash xisoblanadi. Odam organizmning energetik zaxirasi irsiyat tomonidan belgilangan bo'lib xayot faoliyati davomida sarflanadi. Bu nazariyaga ko'ra xarakat faolligi qancha sekin bo'lib energiya kam sarflansa, shuncha qarish sekin bo'lib xayot davomliligi uzoqroq bo'ladi.

19 asrning oxiri 20 asr ning boshlarida rus olimi I.I. Mechnikov tomonidan o'z-o'zini zaxarlash nazariyasi yaratilgan. Xayot davomliligiga tasir qiladigan omillar bilan birga (chekish, alkogolli ichimliklarni istemol qilish, tashqi muxitni noqulay omillari va boshq.) olimning fikricha ichaklardagi mikroblarni faoliyati ta'sirida xosil bo'ladigan toksik moddalar organizmni zaxarlab mudatidan oldin qarishiga olib keladi. Buni oldini olish uchun I.I. Mechnikov ovqat ratsioni tarkibidi oqsillar miqdorini kamaytirib, mevalar, sabzavotlarni va

qatiq, kefirni miqdorini ko‘paytirish bilan birga oranizmni vaqti vaqtida tozalab turishni tavsiya qilgan.

Tabiiyki, qarish tezligi ijtimoiy - iqtisodiy va tibbiy omillar bilan birga, odamlarning xayotini davomligi bilan belgilanadi. Odamlarni xayotining o‘rtacha davomligi turli davlatlarda bir xil emas. Uning davomligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, shulardan jismoniy mashqlar bilan shug‘illanish yetakchi o‘rinni egallaydi.

Fiziologik nuqtai nazardan keksa odamlarda funksional xolatni o‘zgarishi va mexnat qobiliyatchanlikni susayishi ko‘p omillarga bog‘liq bo‘ladi. Eng avvalo ularda qonning xarakatlanish tezligi sekinlashadi, sirkulyatsiyalanayotgan qonning sig‘imi va uning oksigenatsiyasi kamayadi, to‘qima va a‘zolarida gipoksiya xolati rivojlanadi. Muskullarda va jigarda glikogen zaxirasining ozligi qonda glyukozani miqdorini pasayishiga, oksidlanish jarayonlari va energiya almashinuvini kamayishiga olib keladi. Natijada mexnat qobiliyatchanligining ko‘rsatkichlari pasayadi, bajarilayotgan ishning fiziologik qimmatini ortib ketadi.

Xozirgi vaqtda odamning salomatligi, jismoniy tayyorgarligi va chidamliligini baxolash usullari mavjud. Masalan, YuNESKO ning tibbiy-biologik dasturi tomonidan qabul qilingan salomatlik testida odamning yoshi, tana vazni, chekishi, alkogolli ichimlik istemol qilishi, statik yuklamalarga chidamliligi, tinch xolatda yurak urishlar soni va dinamik yuklamadan keyin qayta tiklanishi tavsifi xisobga olinadi. Xar bitta ko‘rsatkichga ball berilib ular qo‘shiladi va u asosida ovqatlanish, xarakat faolligi va maxsus jismoniy chiniqish xususiyatlariga tegishli tavsiyalar beriladi. Faol uzoq yashash va qarishni oldini olishga qaratilgan barcha vositalarni va ishlarning mualliflari birinchi o‘ringa jismoniy chiniqishni qo‘yadi. Masalan Amerikalik fiziolog A.Tanni tomonidan o‘rganilgan bir qator omillar ichida optimal jismoniy yuklamalardan foydalanishni boshqalardan ustun qo‘yadi. Fiziologik, pedagogik nuqtai nazardan eng yaxshi natijaga erishish uchun foydalaniladigan eng kichik sig‘imdagi jismoniy yuklama xajmi optimal yuklama xisoblanadi. Eng qulay va ishonchli optimal sog‘lomashtiruvchi yuklamani topishda yurak urishlar sonidan foydalaniladi. Turli yoshdagi odamlarni sog‘lomashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan shug‘illanganda o‘rtacha yurak urishlar soni 20 yoshda 140 zarba/daqiqqa, 30 yoshda 130 tagacha 40 yoshda 125 tagacha, 50 yoshda 120 tagacha, 60 va undan yuqori yoshda 100 – 110 tadan ortmasligi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, sog‘lomashtiruvchi jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug‘ullanuvchi odam o‘zi uchun optimal jismoniy yuklamani tanlashda o‘zini yurak urishlar chastotasi ko‘rsatkichi asosida yuklama tanlaydi. Buning uchun maksimal yurak urishlar sonidan shug‘illanuvchining yoshini yillarda olib tashlanadi. Chiqqan sonning 65% dan 85% darajasida bajariladigan jismoniy yuklama optimal yuklama xisoblanadi. Shundan kelib chiqib, 60 yoshli odam uchun optimal jismoniy yuklama yurak urishlar soni 104 – 136 zarba/daqiqqa diapozonida bajariladi (yurak urishlarni maksimal chastotasi $220 - 60 = 160$ zarba/ min).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Солодков, А. С. (2017) Физиология человека: общая, спортивная, возрастная //А.С.Солодков, Е. Б. Сологуб. - 7-е изд. - Москва: Спорт, - 621 с.
2. Солодков А.С. (2011) НГУ из П.Ф.Лесгафта. - 2 - е изд., испр. и доп. -М.: Советский спорт. -200с.
3. Salomov R. S. -p.f.d., professor (2005 y). UzDJTI nashriyot-matbaa bulimi.
4. Yunusova Yu.M. Sport faoliyatining nazorat asoslari. Toshkent. 1994 y.